

## KORRUPSION XARAJATLAR

**Kulibayev Fayzulla Abduraxmonovich***Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi**Biznes asoslari fani*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada karrupsion xarajatlar, korrupsiyanı vujudga keltiruvchi sabab va shart-sharoitlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili, korrupsiyanı xavfsizligini shakllantirish dolzarb vazifalari, korruption munosabatlarga qarshi murosasizlikni shakllantirish haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** korruption xarajatlar, korrupsiyanı xavfsizlik, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati.

**Kirish:**

Hozirgi vaqtida jamiyatlarda korrupsiyanı xavfsizligini takomillashtirish jiddiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Sababi korrupsiya jamiyatni barqarorlikdan beqarorlikka olib boradigan, uni yemiradigan jamiyat a'zolarini axloqiy tomondan tubanlashtiradigan va ularda halollikka oid qarashlarini o'zgartirib yuboradigan ijtimoiy illatdir. Umuman olganda, korrupsiya xavfsizligi korruption munosabatlarni oldini olish, unga qarshi kurashish va jazolash mexanizmlarini ishlab chiqish va bu boradagi faoliyat mexanizmini yaratishdan iboratdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Davlat korrupsiyaiga barham berishi bilan korrupsiyaiga qarshi kurash xarajatlari shunchalik o'sadiki, korrupsiyanı to'liq tugatishga cheksiz harakatlar sarflashga mos keladi. Korrupsiyanadan ko'rildigan yo'qotishlar va korrupsiyaiga barham berish xarajatlarini taqqoslab, eng kam umumiy yo'qotishlarni aks ettiradigan korrupsiya optimal darajasini aniqlash mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, jamiyat uchun bu jarayon xarajatlari juda yuqori ekanligi tufayli korrupsiyanı oxirigacha yakson qilmagan ko'proq foyda keltiradi. Ammo korrupsiya bilan kurashga sarflangan mablag'larning keyingi samaradorligini ham esdan chiqarmaslik zarur. Bundan tashqari, korrupsiya sabablarini bartaraf etish ishiga ziyon yetkazgan holda korrupsiyaiga qarshi kurashga berilib ketish ma'muriy tizimni moslashuvchanlikdan, aholini esa fuqarolik erkinliklardan mahrum etishi mumkin.

Korrupsiya va korrupsiyanı munosabatlarga oid atamalar jamiyat a'zolari va huquqni muhofaza qilish organlari tarafidan juda ko'p foydalilanayotgan tushuncha sanaladi. Ammo fuqarolar mazkur atamani kundalik turmushda ko'p foydalanilsa, hamma uning mohiyati haqida yetarli tushunchaga ega emas.

**Natijalar:**

Korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining boshlanishi insoniyat tarixining eng olis nuqtalariga borib taqaladi. Eng qadimgi mamlakatlarga ham korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olish va bu munosabatga kirishganlarni jazoga tortishning turli yo'llari foydalanilgan. Shu bilan birga tarixiy taraqqiyotda turli millat va elatlarning, davlat va ittifoqlarning korrupsiyaviy munosabatlarga, amaldorlarning ta'magirligi bilan bog'liq jarayonlarga qarshi kurashish turli yo'llari, jazolash mexanizmlarini foydalanilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Hozirgi vaqtida korrupsiyaga qarshi kurash va har qanday korruption munosabatlarga qarshi murosasizlikni takomillashtirish muhitda alohida e'tibor berish zarur bo'lgan quyi darajadagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi.

**Muhokama:**

Korrupsiyaviy munosabatlarning asosiy sababi va o'ziga xos xususiyati uning xufyoni va munosabatga kirishuvchi har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lishi bilan belgilanadi. Ya'ni, korrupsiya jinoyati bu munosabatga kirishgan taraflarini o'zaro manfaatli kelishuvi yordamida sodir etiladi. Shuning uchun ko'p holatlarda tegishli kurashuvchi organlarga shikoyat qilinmaydi. Shu bilan birga bugungi vaqtida ko'p mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ishonchsizlik rivojlanib qolganligi uchun ham pora so'rash holatlariga tegishli oranlarga shikoyat qilinmaydi.

**Xulosa:**

Xulosa o'nida shuni aytish mumkinki, korrupsiyaga qarashi kurashda mamlakat xizmati tizimini tegishli tartibda o'zgartirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish talab qilinadi. Bugungi kunda shakllangan mamlakatlarda hamma davlat xizmatlari raqamlashtirilib, inson omilidan holi tizim yaratilmoqda. Bu korrupsiyaviy munosabatlarni ham kamaytiradi. O'zbekistonning ham yangi taraqqiyot bosqichida davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni raqamlashtirishni tezlashtirishga oid ko'plab islohotlar olib borilmoqda.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – T.: O'zbekiston, 2005.
2. Madaliyev A. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti modelini yaratish asoslari. – T.: Fan. 2004.
3. Meliev X. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: «Chashmaprint», 2010.
4. G'oyibnazarov Sh. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish yo'li. – T.: O'zbekiston, 2011.